



MUSIQIY TANLOV VA FESTIVALLARNING MILLIY MADANIYAT RIVOJIGA TA'SIRI

Sobir Madiyev

*O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqiy tanlov va festivallarning milliy madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni hamda ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, ushbu madaniy tadbirlarning milliy musiqa san'ati, an'anaviy ijrochilik maktablari, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, madaniy merosni asrab-avaylash va ommalashtirish jarayonlariga ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: musiqiy tanlovlar, musiqiy festivallar, milliy madaniyat, musiqa san'ati, madaniy meros, milliy qadriyatlar, an'anaviy ijrochilik, yosh iste'dodlar, madaniy diplomatiya, madaniy siyosat, ijodiy rivojlanish, madaniy integratsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются роль музыкальных конкурсов и фестивалей в развитии национальной культуры, а также их социально-культурное значение. В частности, с научной точки зрения рассматривается влияние данных культурных мероприятий на развитие национального музыкального искусства, традиционных исполнительских школ, поддержку молодых талантов, сохранение и популяризацию культурного наследия.

Ключевые слова: музыкальные конкурсы, музыкальные фестивали, национальная культура, музыкальное искусство, культурное наследие, национальные ценности, традиционное исполнительское искусство, молодые таланты, культурная дипломатия, культурная политика, творческое развитие, культурная интеграция.

Abstract. This article examines the role of music competitions and festivals in the development of national culture and analyzes their socio-cultural significance. In particular, it explores the impact of these cultural events on the development of national musical art, traditional performance schools, the support of young talents, and the preservation and promotion of cultural heritage from a scholarly perspective.

Keywords: music competitions, music festivals, national culture, musical art, cultural heritage, national values, traditional performance art, young talents, cultural diplomacy, cultural policy, creative development, cultural integration.

Zamonaviy dunyoda xalqaro musiqiy anjumanlar davlatning xalqaro maydondagi madaniy ta'sir va jozibadorlik vositasi, milliy brendni shakllantirish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida baholanmoqda. Tadqiqotning avvalgi boblarida "tanlov" va "festival" tushunchalarining ijtimoiy-antropologik mohiyati hamda respublika miqyosidagi tadbirlarning ("Nihol", "Yoshlar ovozi" va boshqalar) institutsional mexanizmlari batafsil ko'rib chiqilgan edi. Mazkur bobda esa



e'tibor bevosita xalqaro maydondagi amaliy jarayonlarga – O'zbekiston festival amaliyotining jahon madaniy jarayonlari bilan sintezi natijasida shakllangan global omillargaqaratiladi.

Bugungi kunda yirik xalqaro musiqiy anjumanlar O'zbekiston imijini ijobiy shakllantirish, mamlakatga nisbatan investitsion va turistik qiziqishni oshirishda strategik ta'sir kuchiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, festival doirasida qabul qilinadigan xalqaro rezolyutsiyalar va deklaratsiyalar mamlakatning global madaniy jarayonlardagi bevosita ishtirokini ta'minlamoqda.

Jahon musiqiy makoniga integratsiyalashuv jarayoni milliy musiqa merosini xalqaro standartlar asosida taqdim etishni talab qiladi. Milliy festivallarda tobora ko'zga tashlanayotgan tendensiya – an'anaviy merosni global auditoriya qabul qila oladigan xalqaro formatlarga moslashtirishdir. Bu jarayonda sof og'zaki va etnografik an'analar zamonaviy sahna texnologiyalari, xalqaro ovoz yozish standartlari hamda vizual-simvolik effektlar bilan sintez qilinmoqda. Mazkur yondashuv milliy san'atni nafaqat qotib qolgan muzey eksponati sifatida saqlash, balki uni xalqaro madaniyat bozoriga raqobatbardosh mahsulot sifatida olib chiqish imkonini bermoqda.

- Festivallar faoliyatida kuzatilayotgan yana bir yirik omil – ularning nufuzli xalqaro tashkilotlar (UNESCO, TURKSOY, ISESCO) hamda xalqaro festival tarmoqlari bilan bevosita integratsiyalashuvidir. Dastlabki yillarda bu tashkilotlarning ishtiroki asosan ramziy homiylik xarakteriga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ular festivalning dasturlash, baholash va ilmiy konferensiyalarini tashkil etish jarayonlarining to'laqonli ishtirokchisiga aylandi. Ushbu integratsiya o'zbek musiqiy merosini insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida xalqaro huquqiy himoyaga olish hamda milliy festivallarni jahon madaniy kalendariga kiritish imkonini bermoqda.

Jahon madaniyatshunosligida so'nggi yillarda faol muhokama qilinayotgan "festivalizatsiya" (festivalization) konsepsiyasi O'zbekiston amaliyotida o'ziga xos integratsion shaklda namoyon bo'lmoqda. G'arb tadqiqotchilari Endryu Bennet, Jodi Teylor va Yan Vudvardlar ta'kidlaganidek, zamonaviy dunyoda festival madaniy plyuralizm va globallashuvga javob beruvchi, fuqarolar madaniyatni iste'mol qiladigan asosiy ommaviy vositaga aylangan¹²⁸. O'zbekistonda ham festivalizatsiya jarayoni shunchaki ko'ngilochar tadbirlar sonining ortishi emas, balki milliy an'anaviy musiqa merosini xalqaro standartlarga moslashtirish va global madaniy bozorga olib chiqishning strategik mexanizmi sifatida ishlamoqda.

Mazkur global omilning O'zbekiston madaniy hayotidagi eng yorqin ifodasi — milliy an'anaviy san'atning zamonaviy badiiy formatlar bilan uyg'unlashuvidir. Xususan, "Sharq taronalari" yoki Xalqaro maqom san'ati anjumani kabi yirik maydonlarda sof an'anaviy ijro namunalari zamonaviy media-texnologiyalar, yorug'lik effektlari va xalqaro sahna qonuniyatlariga moslashtirilgan holda global auditoriyaga taqdim etilmoqda. Ushbu

¹²⁸ Bennett A., Taylor J., Woodward I. (eds.) The Festivalization of Culture. -Farnham: Ashgate, 2014. 1-page.





funksional rang-baranglik an'anani saqlash (konservativ funksiya) va uni jahon sahnasiga olib chiqish (kommunikativ funksiya) o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro festivallarining jahon tajribasiga qo'shayotgan eng o'ziga xos hissasi — bu tadbirlarning shunchaki tomoshabop hodisa emas, balki akademik bilim ishlab chiqarish maydoniga (nazariya va amaliyot integratsiyasiga) aylanganidir. Festival dasturining tarkibida tanlov bosqichi va gala-konsertlar bilan bir qatorda yirik ilmiy-amaliy konferensiyalarning o'tkazilishi xalqaro miqyosdagi o'ziga xos omili hisoblanadi. Masalan, festivallar doirasida o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalarga dunyoning yetakchi musiqashunos olimlari, xalqaro tadqiqot markazlari vakillari hamda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining keng jalb etilishi milliy musiqamizni jahon ilm-fanining bevosita tadqiqot ob'ektiga aylantirmoqda.

O'zbekistondagi musiqiy festival va tanlovlar dinamikasini belgilab beruvchi yana bir muhim strategik omil – shaharlarni global madaniy xaritada joylashtirish amaliyotidir. G'arb tadqiqotchilari G.Richards va R.Palmer o'zlarining "Voqealarga boy shaharlar" (Eventful Cities) konsepsiyasida ta'kidlaganidek, yirik festivallar shahar imijini shakllantirish, mahalliy jamoa o'zligini mustahkamlash va xalqaro turizmni jalb etishning asosiy vositasidir¹²⁹. Samarqandning "Sharq taronalari" orqali xalqaro madaniy markazga, Shahrisabzning maqom poytaxtiga yoki Buxoroning jahon savdo-madaniy makoniga aylantirilishi – bevosita Edinburg, Avinyon yoki Zalsburg kabi shaharlar tajribasi bilan hamohang bo'lgan xalqaro integratsiya omilidir. Bu amaliyot milliy o'ziga xoslikka tayangan holda O'zbekiston shaharlarining xalqaro tanilish darajasini keskin oshirmoqda.

Festivallarning tasodifiy, bir martalik tadbirdan barqaror xalqaro madaniy institutga aylanishi ularning qat'iy huquqiy-me'yoriy va moliyaviy bazaga tayanishini taqozo etadi. O'zbekistonda Xalqaro festivallar direksiyasi, Madaniyat va san'atini rivojlantirish jamg'armasi kabi maxsus tuzilmalarning shakllanishi sohaning davlat madaniy siyosati darajasida institutsionallashayotganini ko'rsatuvchi omildir¹³⁰.

Shu bilan birga, Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli kabi akademik jamoalarning festival va anjumanlarda faol ishtirok etishi, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi og'zaki an'ananing xalqaro maydondagi "tirik etaloni" mexanizmini yaratmoqda. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan, bunday institutsional tayanch xalqaro hodisaning jamiyatda "an'anaga aylanishi" jarayonini kafolatlovchi hamda musiqiy merosning uzoq muddatli mavjudligini ta'minlovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Institutsionallashuv jarayonida davlat tomonidan kuchli tartibga solish, bir tomondan, barqarorlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ijodiy erkinlik va o'z-o'zini tashkil etish (self-organization) imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, eng hayotiy festivallar davlat institutsional ko'magi bilan jamoatchilik tashabbusining

¹²⁹ Richards G., Palmer R. Eventful Cities: Cultural Management and Urban Revitalisation. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2010. -2 page.

¹³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni. 2-ilova: Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi (2021–2025) // lex.uz.





muvozanatiga asoslanadi. Shu bois, nodavlat tashkilotlar, ijodiy uyushmalar va mahalliy jamoalarning festival hayotidagi rolini kengaytirish – O‘zbekiston festival amaliyotini yanada demokratik va ijodiy erkinlik ruhida rivojlantirishning asosiy omilidir.

Musiqiy festival va tanlovlarning xalqarolashuvi – bu shunchaki qatnashuvchi davlatlar sonining o‘ssishi emas, balki mamlakatning global madaniy xaritada o‘z o‘rnini mustahkamlash omilidir. “Sharq taronalari” va maqom anjumanlari kabi yirik tadbirlar orqali O‘zbekiston o‘z milliy madaniyatini jahon auditoriyasiga “tarjima qilib” bermoqda. Festivalning YuNESKO, TURKSOY va ISESCO kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar shafeligida o‘tkazilishi uni global madaniy hamjamiyatning ajralmas qismiga aylantiradi. Ushbu jarayonlar davlatning xalqaro maydondagi madaniy ta'sir va jozibadorlik vositasi sifatida baholanib, Brenda Kvinn ta'kidlaganidek, festivallarning badiiy, siyosiy va iqtisodiy funksiyalarini bir vaqtning o‘zida bajarish imkonini beradi.

Milliy tanlov tizimining (jumladan, “Nihol” va boshqa respublika ko‘rik-tanlovlari) strategik ahamiyati ularning nafaqat iste'dodlarni saralash, balki yosh ijodkorlar uchun xalqaro darajadagi professional karyera zinapoyasi vazifasini o‘tashidadir. Sotsiolog P. Burdye nazariyasiga ko‘ra, tanlovlarda erishilgan yutuqlar yosh ijodkor uchun “ramziy kapital” hisoblanib, uning nafaqat milliy, balki xalqaro professional maydonda tan olinishini ta'minlaydi.

“Sharq taronalari”, Navro‘z bayrami munosabati bilan o‘tkaziladigan tadbirlar hamda TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar doirasidagi loyihalar O‘zbekistonni global madaniy-sivilizatsion makonga bog‘lovchi muhim tarmoqlash omilidir. Ishtirokchi davlatlar sonining va geografik qamrovning yildan yilga kengayishi — O‘zbekiston musiqa san'atining xalqaro nufuzi tobora yuksalayotganidan dalolat beradi. Bu ko‘p qatlamli hamkorlik tizimi milliy musiqa madaniyatini bir vaqtning o‘zida ham mintaqaviy (turkiy va Markaziy Osiyo), ham global miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlab, O‘zbekistonni sivilizatsiyalararo muloqotning markaziy maydoniga aylantirmoqda. Ushbu tarmoqlashning muhim jihati shundaki, u nafaqat ijrochi va tomoshabin o‘rtasidagi muloqotni, balki xalqaro musiqashunoslik, badiiy menejment va madaniy siyosat ishlab chiquvchilar o‘rtasida professional muhit shakllantiradi.

Milliy tanlovlar tizimining ta'lim muassasalari (san'at maktablari, kollejlar va oliy ta'lim) bilan uzviy bog‘liqligi yosh ijodkorlar uchun nazariy bilimlarni amaliy mahoratga aylantirishning eng samarali omilidir. Ushbu bosqichli tizim shunchaki saralash mexanizmi emas, balki iqtidorli yoshlarni professional sahnaga tayyorlovchi “ta’limiy konveyer” vazifasini o‘taydi.

Musiqiy festival va tanlov kontentini zamonaviy oqim xizmatlari va global video-platformalarda taqdim etish – milliy san'atni jahon bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib chiqishning qudratli omilidir. Bu jarayon milliy san'atning xalqaro tan olinishini tezlashtirish bilan birga, intellektual mulkni himoya qilish va raqamli mualliflik huquqini tartibga solish kabi yangi xalqaro me'yorlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, raqamli translyatsiyalar tadqiqotchilar uchun ijro uslublari evolyutsiyasini tahlil qilish hamda





madaniyatshunoslik fanining empirik bazasini boyitishda yangi metodologik imkoniyatlar ochib beradi.

Festival turizmi (festival tourism) tashrif buyuruvchilar oqimini ta'minlash orqali nafaqat bevosita moliyaviy daromad keltiribgina qolmay, balki hududning xalqaro brendini mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirish kabi strategik vazifalarni bajaradi. Mazkur omilning ijtimoiy ahamiyati shundaki, festivallar orqali shakllanadigan "ijtimoiy kapital" – ishtirokchilar va tomoshabinlar o'rtasidagi umumiy madaniy tajriba – ko'pmillatli jamiyatda hamjihatlikni ta'minlovchi va milliy birlikni mustahkamlovchi ma'naviy resurs hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklar fonida o'tkaziladigan madaniy tadbirlar moddiy va nomoddiy merosning betakror uyg'unligini namoyish etib, O'zbekistonning jahon madaniy turizm bozoridagi raqobat ustunligini belgilab beradi.

Festival turizmining barqaror rivojlanishi turistik jozibadorlik bilan madaniy autentiklik o'rtasidagi muvozanatga bevosita bog'liq. N. Vangning nazariyasiga ko'ra, sayyohlar madaniyatning "haqiqiy" (autentik) ko'rinishini izlaydilar, biroq har qanday festival taqdimoti ma'lum darajada sahnalashtirilgan bo'ladi¹³¹. Shu sababli, merosning mohiyatini saqlagan holda uni jozibali shaklda taqdim etish – madaniy turizmni mas'uliyatli rivojlantirishning asosiy omilidir. Bu jarayon hududiy o'zlikni mustahkamlash bilan birga, mahalliy jamoalarni faollashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi kompleks strategiyani tashkil etadi.

Musiqiy festival va tanlovlarning janr (an'anaviy-folklor, klassik-akademik, estrada-ommaviy) va format jihatidan differentsiatsiyasi jamiyatning "ko'p ovozlilik" tamoyilini amalda ta'minlovchi asosiy omildir. Bu ilmiy tasnif festival hayotining murakkab manzarasini tizimli tahlil qilishga hamda madaniy ekotizimda turli uslub va avlodlarning yonma-yon rivojlanishiga xizmat qiladi. Madaniy plyuralizmni saqlash – ommaviy madaniyatning bir xillashtiruvchi bosimiga qarshi turish hamda ijodiy erkinlikni kafolatlashning strategik omilidir.

Festival makonini tanlash (masalan, Registon maydoni kabi tarixiy obidalar) milliy o'tmish va zamonaviylikni uyg'unlashtiruvchi ramziy maydon yaratish omilidir. Bu jarayon madaniy semiotika nuqtai nazaridan yondashilganda, festival faqat musiqa ijrosi emas, balki jamiyatning o'z o'zligi haqidagi "hikoyasi" — "madaniy namoyishi" hisoblanadi.

Mazkur omilning ijtimoiy-madaniy ta'siri quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: muntazam o'tkaziladigan festivallar milliy madaniy an'ananing uzluksizligini ta'minlab, jamiyatga o'z madaniy ildizlarini eslatuvchi mexanizm vazifasini o'taydi; festivalning ochilish marosimi, milliy ramzlar va badiiy kompozitsiyalar orqali jamiyat o'zining muhim qadriyatlarini qayta tasdiqlaydi; festival makonining vaqtinchaligi uning hissiy va ramziy ta'sirini kuchaytirib, jamiyatning madaniy ritmini – kundalik mehnat davrlari bilan bayram davrlarining almashinuvini – tashkil qiladi.

Festival va tanlovlarning yosh avlodga yo'naltirilgan tarbiyaviy-ma'rifiy funksiyasi – milliy o'zlikni anglash va yuksak estetik didni shakllantirishning eng samarali omilidir.

¹³¹ Wang N. Rethinking authenticity in tourism experience // Annals of Tourism Research. 1999. Vol. 26, No. 2. P. 352.



Madaniy ijtimoiylashuv jarayoni insonning jonli madaniy amaliyotda ishtirok etishi orqali qadriyatlarni o'zlashtirishini ta'minlaydi. Musiqiy festival va tanlovlarning yosh avlodga go'zallik, nafosat va ezgulik tuyg'ularini tarbiyalashdagi o'rni – milliy ma'naviyatni yuksaltirishning eng ta'sirchan omilidir.

Ma'lumki, musiqa o'zining universal estetik tili orqali insonning hissiy va axloqiy kamolotiga hissa qo'shib, festivalni shunchaki ko'ngilochar tadbir emas, balki chuqur ma'naviy-tarbiyaviy missiyaga ega madaniy institutga aylantiradi. Bu jarayon madaniyatshunoslikda “madaniy ijtimoiylashuv” deb atalib, yoshlarning jonli madaniy amaliyotda ishtirok etishi orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirishini ta'minlaydi.

O'zbekiston festival amaliyoti jahon tendensiyalariga hamohang bo'lgan, ammo milliy zaminga tayangan “ochiq milliylik” modelini shakllantirgan. San'atshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining integratsiyalashgan yondashuvi asosida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek musiqiy festival va tanlovlari milliy an'anaviy merosni saqlash bilan birga, uni xalqaro miqyosda raqobatbardosh, rivojlanuvchi san'at sifatida yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayni paytda, mazkur jarayonda yuzaga kelayotgan autentiklik va kommersiyalashuv, markaz va hududlararo muvozanat hamda innovatsion rivojlanish kabi ziddiyatlarni ilmiy asosda boshqarish – kelajakdagi madaniy siyosatning strategik vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining besh yilligiga bag'ishlangan “O'zbekiston - vatanim manim” mavzuida qo'shiqlar ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risida”gi 451-son Qarori. 1995-yil 5-dekabr. <https://lex.uz/docs/-1658401>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3391-son Qarori. 2017-yil 17-noyabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Buyuk ipak yo'li” xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida”gi PQ-371-son Qarori. 2018-yil 18-may.

4. Avdeeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan” birinchi kitob qadimiy zamonlardan. -T.: 2000.

5. Istamova Sh. “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali dunyo e'tirofida. // Journal of universal science research. // ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2. Issue-10. 155-156 bb.

6. Yo'lchiyeva M. // Xalqaro maqom anjumani butun dunyo bo'ylab keng qanot yozadi! Madaniyat gazetasi. -T.: 2018.

7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.9. -T.: O'zME, 2005.